MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

FARG‘ONA VODIYSI DO‘PPIDO‘ZLIK AN’ANALARIDA QO‘QON MAKTABINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamolova Dilnoza Sulton qizi,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon do‘ppido‘zlik san’atining shakllanishi, hududiy o‘ziga xos xususiyatlari va badiiy-bezak an’analari tahlil qilingan. Qo‘qon do‘ppido‘zlik maktabining Chust, Marg‘ilon va Andijon do‘ppido‘zlik an’analari bilan mushtarak hamda farqli jihatlari, do‘ppilarda qo‘llaniladigan naqsh, rang, shakl va kashtachilik usullarining badiiy-semantik xususiyatlari yoritib berilgan. Qo‘qon do‘ppido‘zlik san’atini o‘rganish uning nafaqat moddiy namunalarini, balki ularni yaratish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va an’analarni ham saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *do‘ppido‘zlik, an’anaviy bosh kiyim, kashtachilik , badiiy bezak, naqsh kompozitsiyasi, ramziy mazmun, ranglar semantikasi, piltado‘zlik, ustoz-shogird an’anasi, nomoddiy madaniy meros.*

Аннотация. *В данной статье анализируются процесс формирования искусства кокандской вышивки тюбетеек в Ферганской долине, его региональные особенности и художественно-декоративные традиции. Освещаются общие и отличительные черты кокандской школы вышивки тюбетеек по сравнению с традициями Чустской, Маргиланской и Андижанской школ, а также художественно-семантические особенности орнаментов, цветовых решений, форм и вышивальных техник, используемых в тюбетейках. Подчеркивается, что изучение искусства кокандской вышивки тюбетеек имеет важное значение не только для сохранения материальных образцов, но и для сохранения связанных с их изготовлением знаний, навыков и традиций.*

Ключевые слова: *вышивка тюбетеек, традиционный головной убор, вышивка, художественный декор, орнаментальная композиция, символическое содержание, семантика цвета, пильтадозлик, традиция “устоз-шогирд” (мастер–ученик), нематериальное культурное наследие.*

Abstract. *This article analyzes the formation of the traditional skullcap embroidery art in the Fergana Valley, with particular focus on the Kokand skullcap embroidery tradition, its regional characteristics, and artistic and decorative traditions. It examines the common and distinctive features of the Kokand school of skullcap embroidery in comparison with the Chust, Margilan, and Andijan embroidery traditions, as well as the artistic and semantic characteristics of the patterns, colors, forms, and embroidery techniques used in skullcaps. The article highlights that the study of the Kokand skullcap embroidery tradition is important not only for preserving its material examples but also for safeguarding the knowledge, skills, and traditions associated with their production.*

Keywords: *skullcap embroidery, traditional headwear, embroidery, artistic decoration, ornamental composition, symbolic meaning, color semantics, piltadozlik embroidery technique, master-apprentice tradition, intangible cultural heritage.*

Har bir xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini shakllantirishda nomoddiy madaniy meros muhim o‘rin egallaydi. Nomoddiy madaniy meros xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy tajribasi, tarixiy xotirasi va madaniy o‘zligini namoyon etuvchi muhim qadriyatlar tizimidir. U jamiyatning turmush tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar, an’analar, marosimlar, og‘zaki ijod namunalari, xalq musiqasi, raqs, an’anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar kabi ko‘plab madaniy hodisalarni o‘z ichiga oladi. Nomoddiy madaniy merosning o‘ziga xos jihati shundaki, u moddiy shakldagi yodgorliklardan farqli holda doimiy ravishda takrorlanish, ijodiy yangilanish va avlodlar o‘rtasidagi madaniy almashinuv jarayonida yashab keladi[1]. Shu bois uni saqlash faqat mavjud an’analarni qayd etish bilan cheklanmay, balki ularni yaratuvchi va davom ettiruvchi jamoalar, guruhlar hamda alohida shaxslarning madaniy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni ham taqozo etadi.

Nomoddiy madaniy meros namunalari, ayniqsa, hunarmandchilik va ustoz-shogird an’analari bilan Farg‘ona vodiysi alohida ajralib turadi. Mazkur hududda asrlar davomida shakllangan kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, kandakorlik, zardo‘zlik, do‘ppido‘zlik, kashtachilik, atlas va adras to‘qish, gilamchilik hamda an’anaviy ipakchilik kabi hunarmandchilik turlari xalqning estetik qarashlari, turmush tarzi va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etib kelmoqda. Ushbu an’analar nafaqat hunarmandlarning amaliy faoliyati, balki muayyan bilim, ko‘nikma, uslub va tajribaning avloddan avlodga o‘tishini ta’minlovchi ustoz-shogird tizimi orqali ham saqlanib kelinmoqda.

Ayniqsa, Farg‘ona vodiysida do‘ppido‘zlik san’ati nomoddiy madaniy merosning o‘ziga xos va muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hunarmandchilik turi hudud aholisining estetik qarashlari, milliy an’analari va tarixiy-madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda naqshlarning shakli, bezaklarning ramziy mazmuni, ranglar uyg‘unligi hamda tikish usullarida mahalliy badiiy an’analar aks etadi. Do‘ppido‘zlik mahoratining avloddan avlodga, xususan, ustoz-shogird an’anasi asosida o‘tib kelishi uning davomiyligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Shu jihatdan, Farg‘ona vodiysi ayniqsa, Qo’qon do‘ppido‘zlik san’ati nafaqat amaliy hunarmandchilik namunasi, balki xalqning madaniy xotirasi, milliy o‘zligi va badiiy tafakkurini ifodalovchi nomoddiy madaniy meros shakli sifatida ham ilmiy tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega.

Do‘ppido‘zlikni faqat kashtachilikning texnik turi sifatida baholash yetarli emas. Chunki do‘ppi yaratish jarayonida bir vaqtning o‘zida bir necha avlodning tajribasi, mahalliy estetik qarashlar, ramziy belgilar, mato va ip tanlash an’analari hamda tikish usullari mujassamlashadi. Shu bois ham Qo‘qon do‘ppido’zlik san’ati mazkur konferensiya mavzusi uchun alohida ilmiy ahamiyatga ega. Farg‘ona vodiysining yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida muhim mavqega ega bo‘lgan. Xonlik hududining hozirgi O‘zbekistonning katta qismi hamda qo‘shni hududlarni qamrab olishi natijasida turli etnomadaniy guruhlar o‘rtasida uzoq muddatli madaniy aloqalar va o‘zaro ta’sir jarayonlari shakllangan. Mazkur jarayonlar xalqning urf-odatlari, marosimlari, an’anaviy hunarmandchiligi, amaliy san’ati hamda kiyinish madaniyatida o‘z aksini topib, umumiy madaniy xususiyatlarning qaror topishiga zamin yaratgan. Xususan, an’anaviy liboslar, bosh kiyimlar nafaqat moddiy

madaniyat namunasi, balki ularni yaratish, bezash, kiyish va avloddan-avlodga yetkazish bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni mujassam etgan nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Farg‘ona vodiysi libos madaniyati hududlararo madaniy almashinuv va tarixiy-madaniy mushtaraklikni aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir.[2]

Farg‘ona vodiysida do‘ppilarning bir necha mahalliy ko‘rinishlari shakllangan. Tadqiqotlarda Chust, Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon va iroqi do‘ppilari vodiyning an’anaviy bosh kiyimlari sifatida qayd etiladi. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda Qo‘qon do‘ppisining Andijon nusxa va Marg‘ilon nusxa kabi ko‘rinishlari bo‘lganligi ko‘rsatiladi.[3] Qo‘qon do‘ppisining Andijon va Marg‘ilon nusxalari bilan bog‘liq xususiyatlari aynan shu madaniy almashinuvni ko‘rsatib beradi. Bu holat Farg‘ona vodiysi madaniyatining yopiq, faqat bir hudud doirasida shakllangan hodisa emas, balki doimiy muloqot va ijodiy o‘zlashtirish jarayonida rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shu sababli “Qo‘qon madaniy muhitida nomoddiy madaniy meros” masalasini o‘rganishda do‘ppido‘zlikni alohida hunar sifatida emas, balki shahar madaniyati, hunarmandchilik, kiyinish madaniyati, ramziy tafakkur va avlodlararo bilim almashinuvi kesishgan nuqta sifatida tadqiq qilish ilmiy jihatdan muhimdir.

Qo‘qon do‘ppido‘zlik san’ati vodiyda shakllangan boshqa do‘ppido‘zlik maktablari xususan, Marg’ilon, Andijon va Chust do’ppilari bilan umumiy badiiy-estetik va texnologik xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, naqsh kompozitsiyasi, bezak motivlari, ranglar uyg‘unligi, tikish usullari hamda shakliy yechimlaridagi o‘ziga xosliklari bilan ulardan ajralib turadi.

XX asr boshlarida Farg’ona vodiysida Chust do’ppisi keng tarqalgan. Chust do‘ppisi qora fon va to‘rtta qalampirli oq naqsh ega, gardishi – o‘n olti qator arka shaklidagi naqsh bilan bezatilgan. Chust do‘ppisi erkaklar milliy bosh kiyimiga aylangan. Namanganda qilingan chust do‘ppilari qisqa va keskin egilgan gajakli yaxlit bodom naqshi va ancha baland gardish bilan ajralib turadi. Shuningdek, uzunchoq, ravon, ingichka qalampirli Marg‘ilon do‘ppilari Chust do‘ppilariga juda yaqin. Andijon erkaklar do‘ppisi o‘zining o‘ziga xos naqshlari, shakli va tikilish elementlari bilan boshqa do‘ppilaridan sezilarli darajada ajralib turadi. Chust va Marg‘ilon erkaklar do‘ppilarida asosan mustaqil turuvchi 4 ta qalampir yoki bodom nusxasi chizilsa, Andijon erkaklar do‘ppisida naqshlar ko‘proq o‘zaro kesishuvchi xarakterga ega. Naqshlar orasida anor, atirgul elementlari va ilon izi (tuxumak) kabi qadimiy ramziy bezaklar ko‘p qo‘llaniladi. Andijon erkaklar do‘ppisi o‘zining dumaloqroq va balandroq kiyiladigan shakli bilan ajralib turadi. Masalan, Chust do‘ppisining tepasi kizagidan (gardishidan) to‘rtburchak (murabba) bo‘lib bo‘rtib chiqsa, Andijon maktabiga xos do‘ppilar yumshoqroq va boshga aniq kiyiladigan chuqurroq qilib tikilgan. Do‘ppining pastki aylanma qismidagi arkalar (mehroblar) Andijon do‘ppilarida ancha nozik va o‘ziga xos uslubda, mahalliy Andijon kashtachilik maktabi an’analariga mos ravishda zich qilib tikilishi bilan o’ziga xosdir.

Qo‘qon do‘ppido‘zlik maktabi esa o‘zining tarixan Xonlik markazi bo‘lganligi sababli Farg‘ona vodiysining boshqa maktablaridan jimjimador va nozik ishlov berilishi bilan ajralib turadi. Chunki, Qo‘qon hunarmandlari kiyimda boylik va nafosatni uyg‘unlashtirishga katta e’tibor qaratishgan. Qo’qon do’ppido’zligidagi asosiy farq naqshlarning kichik va zich, jimjimador qilib tikilishida yaqqol namoyon bo’ladi. Misol uchun, Chust do‘ppisida qalampir naqshlari yirik, qat’iy va aniq to‘rtburchak shaklga ega

bo‘lsa, Qo‘qon do‘ppilarida qalampir yoki bodom nusxalari kichikroq, ingichka va egiluvchan shakllarda ishanishi bilan ajralib turadi. Chust do‘ppisining tepa qismi baland va keskin burchakli bo‘lib bo‘rtib tursa, Qo‘qon uslubidagi do‘ppilarda tepasi yassiroq va burchaklari yumshoqroq qilib tikilish xosdir. Marg‘ilon do‘ppilarida piltalar (choklar) yassi va qalampirlar o‘ta ingichka qilib paxtasiz tikilsa, Qo‘qon erkaklar do‘ppisining tagiga qalinroq piltalar solinib, naqsh atroflari bo‘rtib turadigan qilib ishlanishi bilan alohida ajralib turadi.

Marg‘ilonlik ayollar do‘ppilari yaxlit iroqi chokli kashta va “gullayotgan tup” naqshi shoxlariga ba’zan yashil yoki ko‘k bulbullar (baxtiyorlik timsoli) joylashtirilgan “bulbul nus’ha” do’ppilari bilan ajralib tursa,[4] Qo‘qon ayollar do‘ppisi butun vodiyda o‘zining dabdabali bezaklari bilan namoyon bo’ladi. Andijon ayollar do‘ppilari ko‘pincha zich oq matoga xoch (iroqi) usulida tikilgan bo’lsa, Qo‘qon maktabida asosan qimmatbaho baxmal (duxoba), shoyi va parcha matolardan foydalanilgan. Qo‘qon xonligi saroy madaniyati ta’sirida bu yerda ayollar uchun oltin va kumush iplar (zardo‘zlik) bilan kashta tikish ommalashgan. Bu jihatdan Buxoro zardo‘zi do‘ppilariga yaqin tursa-da, ammo o’zida vodiy piltado‘zlik elementlarini saqlab qolgan holda namoyon bo’ladi. Qo‘qon xonadonlarida kelinlar va ayollar kiyadigan do‘ppilarning chetlari va naqsh ichlari mayda marvaridlar, yaltiroq toshlar va qimmatbaho zarpopuklar (popuklar) bilan nihoyatda boy bezatilgan. Namangan do‘ppilariga qaraganda Qo‘qon ayollar do‘ppisi ancha og‘ir va hashamatli ko‘rinishga ega. Shuningdek, qo’qon do’ppido’zlik san’ati o’zidagi naqshlar bilan ham alohida ajralib turadi. Mazkur hudud naqshlarida faqat an’anaviy bodom emas, balki anor, butun boshli atirgul guldastalari va hatto bulbul yoki tustovuq kabi qushlar ramzi juda nozik choklar (chakma to‘r, piltado‘zi) bilan to‘ldirib tikilishi bilan o’ziga xosdir. Muxtasar qilib aytganda, Chust va Marg‘ilon do‘ppilari o‘zining soddaligi va qat’iy qoliplari bilan ajralib tursa, Qo‘qon maktabi do‘ppilariga saroyona hashamat, nozik chiziqlar va dabdabali bezaklar xosdir.

Do’ppido’zlik san’atida qo’llaniladigan naqsh, rang va shakliy elementlar tasodifiy ravishda tanlanmagan bo‘lib, ularning har biri xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, estetik qarashlari va ramziy tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Do‘ppi kompozitsiyasidagi har bir naqsh motivi muayyan mazmuniy ramziylikka ega bo‘lib, tabiat, farovonlik, hosildorlik, baxt-saodat, himoya va ezgu tilaklar kabi tushunchalarni ifodalab kelgan. Shuningdek, ranglarning tanlanishi ham muayyan semantik vazifani bajargan: rang uyg‘unligi nafaqat bezakning estetik yaxlitligini ta’minlagan, balki xalqning ramziy tafakkuri va an’anaviy dunyoqarashini aks ettirgan.

Ma’lumotlarga ko’ra erkaklar do‘ppisining yuqori qismidagi to‘rt qalampir naqshi insonning sog‘lig‘ini to‘rt tomondan himoya qilish, do‘ppi chetidagi o‘n oltita naqsh esa katta va ahil oila bo‘lish (o‘n oltita farzand ko‘rish) tilagini bildirib kelgan. Qora fonga oq ipak bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo‘lib xizmat qilgan[5]. Qadimdan o’zbek kashtachiligida, naqsh san’atida qalampir naqshi insonlarni yovuz kuchlardan saqlovchi asosiy ramziy belgi sifatida talqin etib kelingan. Shuningdek qora rang ulug’vorlik va kuch-qudrat ramzi[6] sifatida ham talqin qilib kelingan.

Ba’zi adabiyotlarda do’ppidagi mazkur jihat o’zgacha talqin qilinadi. Unga ko’ra do’ppining tomonlari borliqning to‘rt asosiy nuqtasidagi yovuz kuchlardan himoya qilgan.

Qora rang fazoni va qorong‘ilikni anglatgan, bezakda odatda oq iplardan foydalanilgan. Libosning 4 tomonidagi “qalampir” hayotni, oilaviy farovonlikni anglatib, yomon ko‘zdan himoya vazifasini bajargan. Do‘ppining pastki qismida keltirilgan 16 arka hayot va o‘lim davomiyligidir. Arkadagi qo’chqor shoxlari kuch va jasoratni anglatib kelgan[7]. Mazkur ikki ma’lumot orqali shuni bilish muminki, do’ppi insonni yovuz kuchlardan asrash, himoya va ezgulik ramzi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, Qo’qon do’ppilarida hamda vodiyning boshqa hududlari do’ppilarida ishltiladigan tasvirlar xususan, quyosh va gullar tasviri hosildorlik, porloq kelajak va farovon hayotni anglatuvchi rituallar[8] hisoblangan.

Bundan tashqari, Marg’ilon iroqi nusxa do’ppini asosan qizlar kiygan bo’lib, undagi har bir naqsh va rang ramziy ma’noni ifodalab kelgan. Do’ppining tag zaminiga oq ipdan tikilgan kashtalar poklik, hayot abadiyligini anglatsa, g’uncha gullar, qizil va yorqin ranglar qiz bolaning oila qurmaganligini bildirib kelgan[9]. Shunday qilib, o‘zbek do‘ppisi bezagining barcha elementlari — rangi, chiziqlari, rasmlari muhim ma’no yuklamasiga ega bo‘lib, ko‘pincha hayot va o‘lim, yorug‘lik va qorong‘ulik, yer va osmon, yaxshilik va yomonlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog‘liqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon do‘ppido‘zlik san’ati hududning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, estetik qarashlari va amaliy hunarmandchilik an’analarini o‘zida mujassam etgan murakkab badiiy tizimdir. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda an’anaviy do‘ppido‘zlikning ayrim mahalliy usullari, naqsh kompozitsiyalari va ularni yaratish bilan bog‘liq amaliy bilim hamda ko‘nikmalarning asta-sekin kamayayotgani mazkur merosni tizimli ravishda o‘rganish va hujjatlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ustoz-shogird an’anasi orqali saqlanib kelgan, bugungi kunda kam qo‘llanilayotgan do’ppido’zlik san’atidagi kashta tikish usullari va qadimiy naqshlarning mahalliy variantlarini aniqlash, ularning badiiy-semantik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda amaliyotga qayta joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, Qo‘qon do‘ppido‘zlik maktabiga oid an’anaviy usul va naqshlarni muzey, arxiv va shaxsiy kolleksiyalardagi namunalar asosida qiyosiy o‘rganish, ularni raqamli hujjatlashtirish, hunarmandlar tajribasini qayd etish hamda yosh avlodga ustoz-shogird tizimi asosida yetkazish ushbu nomoddiy madaniy merosning uzviyligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Demak, Qo‘qon do‘ppido‘zligini ilmiy o‘rganish nafaqat uning tarixiy va badiiy xususiyatlarini aniqlash, balki yo‘qolib borayotgan an’anaviy texnika, naqsh va mahalliy ijodiy tajribalarni qayta tiklash hamda kelajak avlodga yetkazish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraboyev U, Axmedov J. Nomoddiy madaniy meros. O‘quv qo‘llanma, Toshkent. 2025.

2. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари (XIX–XX асрлар). – Тошкент, 2006.

3. Mamatova D.Z. Xo‘qand do‘ppido‘zlik maktabi // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 1

4. “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi to‘plami”. Ikkinchi qism. XXVII jild. — Toshkent.
5. Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 52
6. Nabiyev P.A. Farg‘ona vodiysi tojiklari an’anaviy hunarmandchiligining etnologik tahlili (kashtachilik, kiyim-kechak tayyorlash, do‘ppido‘zlik va pichoqchilik misolida) // Talqin va tadqiqotlar. — № 6.
7. Davlatova S., Axmedov J. Folklor kiyimlari va bezaklari. — Toshkent, 2025.